



**Baxodir TURSUNOV**

*"Oila va gender" ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktranti*

*E-mail: baxodirjontursunov1@gmail.com*

*PhD A.Darmonov taqrizi asosida*

## THEORETICAL BASIS OF STRENGTHENING FAMILIES IN THE CURRENT CONDITIONS OF GLOBALIZATION

Annotation

This article is about preventing family separation in the current era of globalization, providing information about the family to young people, and accepting the family as a value. The legal aspects of accepting the family as a value and strengthening the family are also shown.

**Key words:** Globalization, family, modern family, values, customs, traditions, family separation, upbringing.

## ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ УКРЕПЛЕНИЯ СЕМЬИ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Аннотация

Статья посвящена профилактике разлучения семей в эпоху глобализации, информированию молодёжи о семье и принятию семьи как ценности. Также рассматриваются правовые аспекты принятия семьи как ценности и её укрепления.

**Ключевые слова:** Глобализация, семья, современная семья, ценности, обычаи, традиции, разделение семей, воспитание.

## GLOBALLASHUV SHAROITIDA OILALARNI MUSTAHKAMLASHNI NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqola hozirgi globallashuv davrida oilalarning ajralishlarini oldini olish, yoshlarga oila haqida malumotlar berish va oilani qadriyat sifatida qabul qilish haqida yozilgan. Oilani qadriyat sifatida qabul qilish va oilani mustahkamlash uchun qonuniy jihatlari ham ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Globallashuv, oila, zamonaviy oila, qadriyatlar, urf-odatlar, ananalar, oilaviy ajrim, tarbiya.

**Kirish.** Hozirgi axborotlashgan jamiyatda har tarafdan kelayotgan axborotlar ko'pchilikni ongini o'zgarishiga olib kelmoqda. Bu holat ayniqsa oilaviy munosabatlarga ham o'z tasirini ko'rsatmasdan qolmayapti. Oila tushunchasining qadriyat darajasi pasayib borishini kuzatishimiz mumkin. Bunga asosiy sabablar oila tushunchasini mohiyatini juda ko'p yoshlar anglab yetmayotganligidadir. Oila qurish jarayonida bugungi kun yoshlarining bazilarida mas'ulyatni pastligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa oila qurgan yosh oilalarda oilaviy nizolar va oila buzilish holatigacha olib kelmoqda. Bunday holatlar jamiyatda sog'lom turmush tarzini buzilishiga sabab bo'ladi. Jamiyatda ota yoki ona mehriyatga to'yimagan bolalarni ko'payishi, ularning o'sib ulg'ayishida ota yoki ona tarbiyasining yetishmaslik holatlarini ko'rishimiz mumkin. Bunday holatlarning yuzaga kelishining asosiy sabablari oila tushunchasining mohiyatini anglab yetmaganlikdan yuzaga kelmoqda. Oila qurgan va oila qurayotgan shaxslar oilaning nazariy va amaliy mohiyatini anglab yetmog'i lozim. Oilani paydo bo'lishi haqida tarixiy bilimlar va bosqichlar mavjud. Oilaga tarif berilar ekan falsafa qomusiy lug'atida keltirilgan quyidagi jumlaning keltirishimiz mumkin:

**Mavzuga oid adabiyotlat tahlili.** Oila – er-xotinlik ittifoqiga, qarindoshlik aloqalariga, umumiy xo'jalik yuritadigan er va xotin, ota-ona va bolalar, aka-uka va opa-singillar va boshqa qarindoshlar o'rtasidagi munosabatlarga asoslanadigan kichik ijtimoiy guruh; jamiyatning asosi, davlat qudratining manbai. oilaning hayoti moddiy (biologik, xo'jalik) va ma'naviy (axloqiy, huquqiy, psixologik) jarayonlar biln xarakterlanadi. Oila – tarixiy kategoriya. Uning shakllari va funksiyalari mavjud ijtimoiy munosabatlar xarakteriga, shuningdek, jamiyatning madaniy taraqqiyoti darajasiga bog'liq. Ayni vaqtda oila jamiyat hayotiga ham kuchli ta'sir

ko'rsatadi, qator funksiyalar (bola tug'ish, uy-ro'zg'orda mehnat qilish, xo'jalik yuritish, o'z a'zolarining jismoniy ehtiyojlarini qondirish, yosh avlodni tarbiyalash, ma'naviy va axloqiy-estetik kamolotiga ta'sir ko'rsatish)ni bajaradi. Tadqiqotchilar eng qadimgi davrda tartibsiz jinsiy aloqalar hukm surgan va u vaqtda oila hali bo'lmagan, bu aloqalar o'rnini gruppaviy nikoh egallagan, juft oila paydo bo'lgan, deb hisoblaydilar. Monogomiya (bir nikohli oila)ning qaror topishi bilan ayollar erkaklar tomonidan asoratga solingan. Ayol asta-sekin o'z eri-xo'jayining mulkiga, quliga aylana borgan. Boylik orttirish va uni qonunni vorislarga berish oilaning asosiy maqsadi bo'lib qolgan. Markaziy Osiyoda keng tarqalgan qadimgi zardushtiylikda oila va nikoh masalasiga muhim ahamiyat berilgan. oila va nikoh yaratuvchining talabiga mos kelganligi bois uni buzish taqiqlangan. Agarda oilada er yoki xotin axloqsizlik, ya'ni buzuqchilik sodir etilsa, unday kishilar tayoq bilan jazolangan. shu orqali oila mustahkamligi uchun kurashganlar. Sharqda qadimdan oila muqaddas Vatan hisoblangan. Uning mustahkamligining darz ketishiga yo'l qo'yimaganlar. Shuningdek, «Avesto»da naslning pokligi, tozaligiga ham alohida e'tibor berilgan. Qarindosh urug', aka-ukaning quda-anda bo'lishi qoralangan. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, oilaga bo'lgan e'tibor yanada oshdi. oila fuqarolik jamiyatining, davlatning eng muhim hujayrasi, zarrasi, bo'g'ini. oila uch jihatni: o'zining bevosita ko'rinishi bo'lmish nikohni; oilaviy mulk va anjomlar hamda ular haqidagi g'amxo'rlikni, bolalar tarbiyasini o'z ichiga oladi. Qonunga binoan nikoh tuzish shartlarida eng muhimlari — nikohga kiruvchilarning o'zaro roziligi va ularning nikoh yoshiga yetganliklari hisoblanadi. oila poklik va soflikka, ikki tomonlama muhabbatga, sadoqat va vafodorlikka

asoslanishi kerak, oila mustahkam, tinch, farovon, sog'lom bo'lsagina jamiyatda barqarorlik vujudga keladi[1].

Biz yuqorida ko'rgan oilaviy munosabatlar oila mustahkamligining asoslari hisoblanadi. Oilaga bu darajada e'tiborning kuchliligi shundaki, jamiyatning asosini oila tashkil etadi. Qaysiki jamiyatda oilalar mustahkam bo'lmasa demak o'sha jamiyat nosog'lom jamiyat hisoblanadi. Jamaytimizda nosog'lom oilalarning yuzaga kelishiga, Bugungi kunda bazi bir oilalarimizda qarindoshlar bilan quda-andachilik munosabatlari, oilalarda poklik, soflik, sadoqat tuyg'ularining yo'qligi oilalarning buzilishiga sabab bo'lmoqda. oila qurayotgan shaxs oila haqdagi bilimlarini rivojlantirib borsa oila buzilish holatlari jamiyatda kamayadi. Oilalarning buzilishida yoshlarda oila haqidagi bilimlarni yetishmasligini ko'rsatishimiz mumkin. Lekin bazi holatlarda yosh oilalarning buzilishiga yoshi ketta insonlar ham sababchi bo'lib qolmoqda. Yoshlar qolib bazi yoshi katta insonlar ham oilani qadriyat ekanligini unutib qo'yimoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolani yozishda muammoviy tahlil, xronologik izchillik, qiyosiy tahlil, og'zaki tarix kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Oilaviy qadriyat haqida gap ketar ekan avvalo qadriyat tushunchasi nima ekanligiga to'xtalib o'tishimiz lozim.

"Qadriyat" atamasi inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat yoki qaysidir ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat ne'matlari hisoblanadi. Milliy qadriyatlar mahalliy va diniy qadriyatlarga, umuminsoniy qadriyatlar esa ko'plab milliy qadriyatlarga tayanib shakllanadi va asrlar osha takomillashib boraveradi. Bugungi tezkor globallashtirish sharoitida ham o'z milliy va ma'naviy boyliklarini asrab-avaylayotgan, boyitib rivojlantirayotgan har qanday millat o'ziga xos an'analari, urf-odatlarini va o'lmas qadriyatlarini bilan boshqa millatlardan ajralib turadi[2]. mana shunday ekan oilaviy qadriyatlar ham oilalarning mustahkamligi uchun xizmat qiladi. Bu jarayonda ko'p yillar davomida oilalarda shakllanib, rivojlanib kelayotgan milliy analarimiz, uruf-odatlarimiz muxim ahamiyat kasb etadi. Bu qadriyatlar oilalarni mustahkamlash, ota-ona, farzandlar, er-xotin o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlaydi.

Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir xamda jamiyat va davlat muxofazasida bo'lish xuquqiga ega", deyiladi O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasida. oila jamiyatning tabiiy va asosiy xujayrasini tashkil etadi. Jamiyat katta-kichik oilalardan iborat. Bu oilalar qanchalik mustahkam bo'lsa, jamiyat xam shunchalik mustahkam bo'ladi. oila bu er-xotin farzandlar, farzandlikka olingan shaxslarning o'zaro xurmat, g'amxo'rlik, xamjihatlik asosida jamoa bo'lib yashovchi shaxslar ittifoqidir. Shunday ekan bugungi kunda oilalarda nizolarning arzimagan jarayonlar tufayli yuzaga kelayotganini ko'rishimiz mumkin. Bu holatlar oilaning buzilishi, farzandlarning yetim bo'lishiga arzimaydigan moddiy yoki manaviy jarayonlardir. Oila ajralish holatlariga ikkala taraf ham, erkak kishi ham, ayol kishi ham loqaydlik bilan qaramoqda. Arzimagan tilla buyumlar, ijtimoiy tarmoqlardagi ko'z boyamachilik uchun qilinayotgan soxta oilalarning hatti harakatlari oilalarning asosiy buzilish sabablariga aylanmoqda. Hozirgi yoshlar Oilani qadriyat sifatida emas moddiy sifatida qabul qilishmoqda.

Buni natijasida arzimaga yetishmovchiliklar katta muammolarni yuzaga keltirib chiqarmoqda. Yoshlarni imkoniyatidan ortiq orzu-havaslarni qilishi, bugun hayotda katta yo'qotishlarga olib kelmoqda. O'zbekiston respublikasi statistika qo'mitasining ma'lumotiga ko'ra Tuzilgan nikohlar soni 2024-yil 271776 tani tashkil qiladi. nikohdan ajralganlar soni esa 45135,0 tani tashkil etmoqda. Bundan ko'rishimiz

mumkinki nikoh qurganlar sonining 16,6 foiz qismini ajrashganlar tashkil etmoqda. Ko'rishimiz mumkinki jamiyatimizda ajrashgan oilalar sonining ko'pligini. Buni natijasida qanchadan qancha bolalar tirik yetim bolib qolmoqda. Mana shu ajrashganlarni qishloq va shahar kesimida taqsimlaydigan bo'lsak, qishloqlarda 17148 ta, shaharlar kesimida esa 27987 tani tashkil etmoqda. Mana shunday jarayonlardan har bir fuqaro o'ziga to'g'ri ijobiy hulosa chiqarishi kerak. Bunday ajrim holatlarining bazilarida muntazam ravishda tazyiq, zo'ravonlik asosli sabablar bo'lishi mumkin. Lekin hamma ajrashgan oilalarni bunday deb oqlay olmaymiz. Shu o'rinda buyuk mutafakkirimiz Abdurauf Fitratni oila haqidagi qarashlarini keltirishimiz lozim:

Abdurauf Fitrat oila asosini to'g'ri qurmasdan va yosh avlodni to'g'ri tarbiyalamasdan turib jamiyatni islox qilish, uni taraqqiy ettirish mumkin emas, degan g'oyaga tayanardi. "Xar bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq, - deb yozadi u. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. qayerda oila munosabati kuchli intizom va tartibga tayansa, mamlakat va millat xam shuncha kuchli va tartibli bo'ladi. Agarda bir mamlakatning axolisi axloqsizlik va joxillik bilan oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo'l qo'ysa, shunda bu millatning saodati va xayoti shubxa ostida qoladi".[3] Buyuk mutafakkirimiz oila haqidagi fikrlari oilani mustahkamlashning eng muhim nazariy jihati hisoblanadi. Hozirgi zamonaviy bazi oila qurayotgan yoshlar oilaning ma'naviy axloqiy jihatlarga emas ko'proq moddiy jihatlarga ahamiyat qaratmoqda. Bu esa malum vaqt o'tishi bilan oilaning darz ketishiga olib kelmoqda. Oiladagi kuchli intizom ham oilaning mustahkamligiga xizmat qiladi. Bazi oilalarda intizom tugul farzand tarbiyasiga ahamiyat ham berilmaydi. Hatto er-xotin o'rtasidagi munosabatlar axloqiy meyorlarga to'g'ri kelmaydi. Bunday oilada ulg'aygan yoshlar turmush qurganidan keyin oilasida shunday muhitni shakllantiradi. Qush uyasida ko'rganini qiladi degan naqil bejizga aytilmagan. Abdurauf fitrat intizom haqida shuning uchun bejizga aytmagan. Intizom oilaviy munosabatlarni mustahkamlaydi.

So'nggi yillarda oila institutini mustahkamlash, oilalarda sog'lom axloqiy, ma'naviy muhitni shakllantirish, qadriyatlar transformatsiyasining oiladagi qadriyatlar tizimiga salbiy ta'sirini kamaytirish masalasiga alohida e'tibor qarab kelinmoqda. Ayniqsa, bugungi global o'zgarishlar sharoitida jamiyatning mikro modeli hisoblanuvchi oila institutini qadriyat sifatida saqlab qolish, yoshlar ongida oilaviy qadriyatlarga nisbatan ijobiy qarashlarni shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zero "bugun jahon miqyosida taraqqiyot sur'atlari misli ko'rilmagan darajada shiddatli tus olmoqda. Ayni vaqtda azaliy qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy qarashlar tizimida chuqur transformatsiya jarayonlari yuz bermoqda".[4] Shu sababli ham yurtimizda oilalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, yosh oilalarni qadriyatlar transformatsiyasi sharoitida mustahkamligini ta'minlash, oilada farzandlarni an'anaviy qadriyatlarga sodiqlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, yoshlarni oilaviy hayotga ma'naviy-axloqiy jihatdan tayyorlash kabi yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlarni olib borishni taqozo etmoqda.

Yuqorida aytilganidek hozirgi zamonaviy texnika-texnologiya rivojlangan davirda har bir inson globallashtirish jarayoniga o'zi xoxlasa-xoxlamasa aralashishga majbur bo'ladi. Bu holatda albatta bosh millat va elatlarning madaniyati bilan ham tanishishga majbur bo'ladi. Bu holat albatta insonning o'z milliy uruf-odatlarini, analari va madaniyatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin. Biz buni tarixga nazar solib ko'rib chiqamiz.

Oilalar tashkil topishi umumiy jarayonida sobiq SSSRda XX asr o‘rtalaridayoq, yoshlar xamda o‘rta avlodga taalluqlilar bir qismining avvalgi nikox an‘analari va oila turmushi qoidalaridan chetlasha boshlashlari kuzatildi. Jumladan, 1950 yilda sobiq SSSRda xar 1000 kishi xisobiga tuzilgan niox xamda ajralishlar soni 11,0 va 0,4 foizni tashkil etgan bo‘lsa, O‘zbekistonda bu ko‘rsatkichlar tegishli ravishda 10,2 va 0,1 foiz edi. 1987 yilga kelib esa bu ko‘rsatkichlar sobiq SSSRda tegishli ravishda 9,8 va 3,4 foizga, O‘zbekistonda 9,8 va 1,5 foizga teng bo‘ldi. O‘zbekistonda nikoxlar soni kamayishi va ajralishlarning ko‘payishi bir tomondan, iqtisodiyot va ijtimoiy soxalardagi salbiy xolatlar, ikkinchi tomondan turmush qurganlarning milliy va diniy talab-qoidalarga to‘liq amal etmay qo‘yganliklari, ota-onalarda farzandlar uchun mas‘uliyat xissi bo‘shashgani bilan izoxlanadi.[5] Ko‘rishimiz mumkinki yod g‘oya vamadaniyatlarining kirib kelishi oilalarning salbiy tarafga o‘zgarishiga ham sabab bo‘ladi.

Shuning uchun ham bugungi kunda mamlakatimizda oilalarni mustahkamlash bo‘yicha birqancha islohatlar amalga oshirilmoqda bularni quydagi jarayonlarda ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston–2030” strategiyasi

to‘g‘risida”, 2022-yil 7-martdagi PF-87-son “Oila va xotin qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 21-dekabrda PF-208-son “Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari, 2021-yil 1-martdagi PQ-146-son “Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”, 2023-yil 21-dekabrda PQ-401-son “Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2018-yil 27-iyundagi PQ-3808-son “O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarining qabul qilinishi ham oilani mustahkamlashga qaratilgan.

**Xulosa.** Bugungi globallashuv davrida oilalarni mustahkamlash va ajrimlarni oldini olish uchun davlatimiz tomonidan madaniy, ma‘naviy, huquqiy jihatdan barcha davr talabi bo‘lgan barcha islohatlar amalga oshirilmoqda. Fuqarolar ham ham mana shunday islohatlar samaradorligini oshirish uchun ma‘naviy va madaniy, huquqiy ongini rivojlantirishi kerak bo‘ladi. Oila mustahkamligi jamiyat va davlat mustahkamligidir.

#### ADABIYOTLAR

1. Фалсафа комусий луғат. Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриётию тошкент 2004 310 бет.
2. Egamberdiyeva Nodira Melibayevna. “Zamonaviy oilada, farzand tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarini shakllantirish masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami.
3. Абдурауф Фитрат. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. Тошкент, “Маънавият”, 1998. 8-бет.
4. Mirziyoyev Sh. Ma‘naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak // Prezident Shavkat Mirziyoyevning Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqi. 22.12.2023 // <https://president.uz/uz/lists/view/6941>
5. Фарида Саифназарова ўзбек оиласи: ижтимоий ва маънавий қадриятлар. “yurist-media markazi” Нашриёти тошкент 2007. 70 б.